

Xushboqova Fotima Rustamovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada folklor matnlarida frazeologik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari, ularning semantik, struktur va lingvokulturologik jihatlari keng yoritiladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan olingan misollar asosida frazeologizmlarning badiiy-estetik vazifalari, milliy tafakkurni ifodalashdagi o‘rni hamda tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi.

Annotation

This article examines the use of phraseological units in folklore texts with examples from oral traditions such as proverbs, fairy tales, and epics. It analyzes their semantic and linguocultural features, as well as their role in expressing national worldview and cultural values. The study shows that phraseological units enhance expressiveness and serve as a tool for moral education.

Kalit so‘zlar

frazeologizm, folklor, maqol, ertak, doston, lingvokulturologiya, obrazlilik.

Keywords

phraseological units, folklore, proverbs, fairy tales, linguoculturology, cultural values

Kirish

Til va adabiyot millatning madaniy xotirasi va ma’naviy boyligini aks ettiruvchi muhim vositadir. Ayniqsa, frazeologik birliklar tilning eng boy va obrazli qatlamini tashkil etib, unda xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va dunyoqarashi mujassam bo‘ladi.

Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganuvchi fan sifatida frazeologizmlarni o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi frazeologizmlar xalqning mentaliteti, qadriyatlar va milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi boy manbadir.

Folklor xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi va tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Unda tilning eng boy va obrazli qatlamlari mujassam bo‘lib, frazeologizmlar alohida o‘rin egallaydi. Ular orqali xalqning ruhiyati, dunyoqarashi va qadriyatlar yorqin ifodalanadi.

Folklorda iboralarning (frazeologizmlarning) qoʻllanishi xalq ogʻzaki ijodining badiiy qudrati, milliy ruhi va taʼsirchanligini taʼminlovchi eng muhim vositalardan biridir. Ibora folklor asarlarida shunchaki soʻz birikmasi emas, balki asrlar davomida shakllangan xalq donoligi va tajribasining siqiq ifodasi sifatida namoyon boʻladi.

Frazeologizmlar folklor matnlarida tayyor holda qoʻllanilib, nutqqa obrazlilik va taʼsirchanlik bagʻishlaydi. Shu sababli ularni folklor namunalari oʻrganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Frazeologizmlarning semantik xususiyatlari

Folklorda frazeologizmlar koʻpincha koʻchma maʼnoda ishlatiladi. Masalan, xalq orasida keng tarqalgan quyidagi iboralarni koʻrib chiqamiz:

“Yuragi orqasiga tortib ketdi” – kuchli qoʻrquvni bildiradi.

“Koʻngli togʻdek” – sabr va bardosh timsoli.

“Koʻz ochib yumguncha” – juda tez vaqt oraligʻi.

Bu kabi iboralar oddiy gapga nisbatan kuchliroq taʼsir koʻrsatadi.

Maqollarda frazeologizmlar (folklor namunasi)

Maqollar frazeologizmlarning eng boy manbalaridan biridir. Ular xalq donishmandligini aks ettiradi:

“Koʻrpangga qarab oyoq uzat” → iqtisodiy ehtiyotkorlikni bildiradi.

“El ogʻziga elak tutib boʻlmas” → jamiyat fikrini boshqarib boʻlmasligini anglatadi.

“Sabr tagi sariq oltin” → sabrning natijasi yaxshi boʻlishini ifodalaydi. Bu maqollarda frazeologik birliklar umumlantiruvchi va tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Ertaklarda frazeologizmlar

Folklordagi bir qator janrlarda, jumladan, maishiy-hayotiy ertaklarda, tarixiy va lirik qoʻshiqlarda voqyelik ham, qahramon ham real ifodalanadi. Bu, shubhasiz, xalq ongining mifologik tasavvurlardan qutula borib, oʻz-oʻzini anglashi ancha chuqurlashgan, oilaviy va ijtimoiy turmush tarzidagi oʻzgarishlarni teranroq idrok eta borishi tufayli nisbatan keyinroq sodir boʻlgan hodisadir. Ertaklarda frazeologizmlar voqeani jonlantirish va obraz yaratishda xizmat qiladi. Folklor asarlarida (ayniqsa, ertak va dostonlarda) iboralar avloddan-avlodga deyarli oʻzgarmas shaklda oʻtib keladi. Ular asarning stilistik butunligini saqlashga yordam beradi.

Masalan, oʻzbek xalq ertaklarida:

“Yeti uxlab tushiga kirmagan voqea” – kutilmagan holat;

“Koʻz ochib yumguncha yoʻl bosdi” – tezlikni ifodalash;

“Yer bilan yakson qildi” – butunlay yoʻq qilish maʼnosida.

Ertaklarda bu kabi iboralar voqealarning dinamikligini oshiradi va tinglovchini jalb qiladi.

Dostonlarda frazeologizmlar

Epik dostonlarda frazeologizmlar qahramonlarning kuchi, jasorati va ruhiy holatini ifodalashda qo'llanadi. Badiiy tasvir vositasi sifatida iboralar qahramonlarning xarakterini, ruhiy holatini yoki voqealar mohiyatini jonli va yorqin tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan, dostonlarda qahramonning mardligi "o'limni bo'yniga olmoq" yoki qattiq qo'rquv "zahراسi yorilmoq" kabi iboralar orqali ifodalanadi.

Milliy xarakter va turmush tarzi: Ko'pgina iboralar bevosita xalqning urf-odatlarini va turmushi asosida paydo bo'lgan. Masalan, sovchilik an'analarida qo'llaniladigan "Sizda bir gul, bizda bir bulbul" iborasi xalqning nozik didi va an'analarini o'zida aks ettiradi. Masalan, xalq dostonlarida: "Tog'ni talqon qilgudek kuchga ega", "Yuragi olovdek yonar edi", "Dushman ustiga bo'rondek yopirildi". Bu iboralar qahramon obrazini ulug'lash va epik tasvirni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Lingvokulturologik jihatlar

Frazeologizmlar xalqning milliy qadriyatlarini aks ettiradi. Iboralar ko'pincha maqollarning asosi yoki tarkibiy qismi bo'lib keladi. Ertaklarda: "Ko'z ochib yumguncha", "Bir pasda" kabi vaqt va harakatni ifodalovchi iboralar asar dinamikasini oshiradi. Folklor namunalarini yozib olishdagi dastlabki tajribalar XI asrdan boshlab ko'zga tashlanadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asaridagi xalq og'zaki ijodi namunalari buning yorqin misolidir. XI asrning mashhur tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariy turkiy so'zlarning lug'aviy ma'nosini izohlash maqsadida qo'shiq, maqol, afsona kabi folklor namunalaridan ham foydalangan. Unda XI asr og'zaki adabiyoti namunalari bilan birga eng qadimgi davrlarda, hatto, eramizdan oldingi zamonlarda yaratilgan, asrdan asrga, avlodlardan avlodga ko'chib yurgan ko'plab xalq maqollari, rang-barang qo'shiqlar, afsona va naqllar to'planib izohlanganki, bu asar muallifining faqat tilshunos olim bo'lib qolmasdan, balki o'z davrining adabiyotshunosi, etnografi va folklorshunosi bo'lganligidan ham dalolat beradi. Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, frazeologizmlar juda qadim davrlardan buyon avlodlardan avlodga o'tib har bir xalqning madaniy merosi sifatida takomillashib kelmoqda. Buning isboti sifatida dostonlar, maqollar va matallarni tahlil qilamiz.

Dostonlarda: Qahramonlik va epik ko'lamni ifodalovchi "ot surmoq", "tig' urmoq" kabi barqaror birikmalar keng qo'llaniladi. Masalan:

"Mehmon otangdan ulug'" – mehmondo'stlik an'anasi;

"Non topgan joyingni tashlama" – sadoqat va mehnat qadri;

"Kattaga hurmat, kichikka izzat" – axloqiy me'yor. Bu iboralar xalqning madaniy va ma'naviy merosi sifatida xizmat qiladi hamda badiiy-estetik va emotsional ta'sirni kuchaytirib beradi.

Folklor namunalarida frazeologizmlar nutqni yanada ta'sirchan qiladi. Masalan: Oddiy: U juda xursand bo'ldi, folklor uslubida: "Og'zi qulog'ida edi"

Oddiy: U qo‘rqib ketdi, folklor uslubida: “Yuragi orqasiga tortib ketdi”.

Bu farq frazeologizmlarning badiiy kuchini yaqqol ko‘rsatadi.

Tarbiyaviy ahamiyat

O‘zbek folklori janrlar rang-barangligi, asarlar badiiyati va son ko‘lami jihatidan kattalarning og‘zaki ijodi qatoridan munosib o‘rin olishga loyiqdir. Bolalar folklori namunalari o‘zbekning o‘z farzandi tarbiyasiga, binobarin, xalqining, yurtining kelajagiga o‘ta mas‘uliyat bilan yondashganini va qanchalar e‘tibor bilan qaraganini ko‘rsatadi. Folklor orqali berilgan frazeologizmlar yosh avlod tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi:

“Yolg‘onning umri qisqa”

“Yaxshilik qil, suvga tashla”

“Halol mehnat – rohat kaliti”

Bu kabi iboralar insonni to‘g‘ri yo‘lga undaydi va axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi.

Xulosa

Folklorda an‘anaviylik o‘ziga xos xususiyatlardan bo‘lib, uning g‘oyaviy – estetik mohiyatini belgilaydi. An‘anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining og‘izdan og‘izga o‘tishi jarayonida nisbatan barqarorliknigina anglatib qolmay, balki o‘sha asarning avloddan avlodga o‘tish jarayonida dastlabki ijrosiga xos xususiyatlarni, quyi va shaklini, ifodaviy vositalari va qahramonlarini nisbatan o‘zgarmagan holda saqlab qolganligini ham anglatadi.

Xalq ijodiyotida an‘anaviylik g‘oyaviy-badiiy mazmunda keng ko‘lamga ega. Zero, mavzu mohiyatiga ko‘ra uning barcha tur va janrlaridagi namunalarida Vatan, xalq va mehnatni ulug‘lash, adolasizlikka nafrat bilan qarash, do‘stlik va birodarlikni qadrlash, chin insoniy muhabbatni sharaflash mushtarak an‘anaviy motivlardir. Shuningdek, an‘anaviylik folklorning har bir turi va janrining kompozision tarkibiga xos unsurlar umumiylikni ham namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, folklorda frazeologizmlar nafaqat til birligi, balki madaniy va tarbiyaviy vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ular orqali xalqning tafakkuri, qadriyatlari va hayotiy tajribasi ifodalanadi.

Folklor namunalarida frazeologizmlarning keng qo‘llanishi ularning badiiy-estetik kuchini; emotsional ta‘sirini; lingvokulturologik ahamiyatini; tarbiyaviy rolini yaqqol namoyon etadi. Iboralar xalq tilining boyligini ko‘rsatibgina qolmay, balki folklor asarlarining ta‘sirchanligini va tinglovchiga yetib borish darajasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hodi Zarif. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent.
2. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent, 2010.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 1992.
4. Sarimsoqov B. O‘zbek folklori. – Toshkent.
5. Safarov Sh. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent.
6. Yo‘ldoshev B. Frazeologiya asoslari. – Toshkent.